

OLIGOFREN BOLALARNI DIFFERENSIAL YONDASHGAN HOLDA KORREKSION O'QITISH VA TARBIYALASHNING DOLZARB MASALALARI

Xusanov A'zamjon Axmadjanovich.

UBS, Pedagogiki va psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Email: xusanovazamjon@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada oligofren bolalar ta'lim-tarbiyasi muammosi tadqiq qilingan. Sohaga oid ilmiy adabiyotlar tahlili asosida aqli zaiflik darajalari guruhlangan, har bir guruh ta'riflangan va tabaqalashtirilgan yondashishni qo'llash asosida aqli zaiflikni korreksiyalash masalasi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: intellekt, intellekt koeffisienti (IQ), intellektual kamchilik, intellektual rivojlanmaslik, jarohat, kognitiv bilish jarayonlari, aqli zaiflik, nutqiy qobiliyat, idiotizm, organik demensiya.

ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ ПОДХОД К ПРОБЛЕМЕ КОРРЕКЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ ДЕТЕЙ С ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫМИ ДЕФЕКТАМИ

Хусанов Аъзамжон Ахмаджанович

UBS, старший преподаватель кафедры «Педагогика и психологии»

Email: xusanovazamjon@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема образования детей олигофренов. На основе анализа научной литературы осуществлена группировка уровней умственной отсталости, дана характеристика каждой группы и рассмотрен вопрос коррекции умственной отсталости на основе применения дифференцированного подхода.

Ключевые слова: интеллект, IQ, интеллектуальное развитие, травмы, когнитивные процессы, умственная отсталость, речевые способности, коррекционное образование, органические деменция.

PROBLEMS OF CORRECTIVE TRAINING AND EDUCATION OF CHILDREN WITH MENTAL DEFECTS WITH A DIFFERENTIAL APPROACH

Khusanov Azamzhon Akhmadzhanovich

UBS, Senior Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology

Email: xusanovazamjon@gmail.com

Annotation: *The article deals with the problem of education of mentally retarded children. Based on the analysis of the scientific literature, the grouping of the levels of mental retardation is carried out. The characteristics of each group are given, and the issue of correcting mental retardation is considered on the basis of the differentiated approach implementation.*

Keywords: *intelligence, IQ, intellectual development, trauma, cognitive processes, mental retardation, imbecile, idiot, organic dementia.*

KIRISH

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan yangi munosabat bilan bog'liq bo'lgan maxsus ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning yangi istiqbollari ochilmoqda, ularning ijtimoiylashuvi va jamiyatga integratsiyasi muammolari hal qilinmoqda. Respublikamizda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha bolalar yetarlicha o'qitish va tarbiyalash uchun qulay bo'lgan shartsharoitlarni yaratishning huquqiy asosi bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi va "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunlarida jamiyatda sog'lom turmush tarzini yanada shakllantirish, aholining salomatligini yanada mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqarish va ma'naviy jihatdan yetuk yosh avlodni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish belgilab berilgan. Bola shaxsining tarkib topishi - hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgan va eshitganlari asosida borliqqa, tevarak-atrofdagi kishilarga o'z munosabatini bildiradi, kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo'layotgan voqealarga bolaning reaksiyasi, atrofdagilarga bo'lgan munosabati – bularning barchasi bola ma'naviy olamining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bolaning xoh ona qornida paydo bo'lishi va rivojlanishi, xoh tug'ruq jarayonidagi va tug'ilganidan keyingi rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Shulardan biri bu – aqli zaiflikdir. Mavzuning dolzarbligi intellektual kamchiliklari bo'lgan aqli zaif bolalarni tabaqalashtirilgan yondashishni qo'llash asosida korreksion o'qitish va tarbiyalash masalalari yetarli darajada o'rganilmaganligi sababli, ilmiy va amaliy tadqiq etish. Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Aqli zaiflik

deganda bosh miyaning organik jihatdan jarohatlanishi natijasida psixik, birinchi navbatda intellektual rivojlanishning turg'un pasayishi tushuniladi. Aqli zaif bolalar umumta'lim maktablari dasturini o'zlashtirishga qodir bo'lmaydilar. Og'ir darajadagi aqli zaif bolalar maktabda bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib ololmaydilar. Aqli zaiflik tushunchasini to'g'ri tushunishning amaliy va nazariy ahamiyati juda katta. Nazariy ahamiyati – bolalardagi nuqsonli ruhiy taraqqiyotning mohiyatini chuqurroq bilish uchun zarur. "Aqli zaiflik"ka to'g'ri ta'rif, tushuncha berish, uning sabablarini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Buning amaliy ahamiyati yanada kattadir. Aqli zaif bolalar uchun maxsus o'quv-tarbiya muassasalari mavjud. Barcha aqli zaif bolalar maxsus maktablarda ta'lim-tarbiya olishlari lozim. Aqli zaif bolalarni to'g'ri aniqlash, ularning butun hayotini belgilab berishini inobatga olib, juda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak.

Aqli zaiflik tashxisini to'g'ri qo'yish uchun ikkita omil birga kelishi lozim:

- * bulardan biri – markaziy nerv sistemasining organik buzilishi;
- * ikkinchisi – shuning oqibatida bola bilish faoliyatining turg'un pasayishi yuz bergan bo'lsa, aqli zaif deb e'tirof etish mumkin.

Aqliy rivojlanishida buzilishlari (aqliy rivojlanmaganlik) bo'lgan shaxslar qatoriga diffuzli (yoyilgan) ko'rinishni bosh miya qobig'ining organik shikastlanishi asoratida vujudga keladigan asosan bilish sohasida turg'un, qaytarib bo'lmaydigan buzilishlarga ega shaxslar kiradi. Aqliy rivojlanmaganlik nuqsoniga xos xususiyat oliy psixik ikki funksiyani – xulq va faoliyatning aks etishi va tartibga solinishining buzilishi xosdir. Bu bilish faoliyati jarayonlarini (sezgi, idrok, xotira, diqqat, fikrlash, tasavvur etish, nutq, e'tibor) buzilishida, hissiyroda sohasi, motorika, umuman shaxs xatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi.

Aqliy rivojlanmaganlikni vujudga kelishining sabablariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- * nasliy kasalliklar (mikrotsefaliya, fenilketonuriya, to'qimalarning bog'lanish kasalliklari, markaziy asab tizimining nasliy degenerativ kasalliklari va boshqalar),
- * xromosomalarining tuzilishi va sonida buzilishlar (Daun sindromi, X-xromosomaning sinishi bilan bog'liq oligofreniya, Klaynfelter, Shereshevskiy-Terner sindromlari va boshqalar).

Hayotda aqli zaif bolalarga o'xshagan bolalarni ko'plab uchratish mumkin. Lekin, ularda bilish darajasi past bo'lsada, bosh miyada organik jarohatlanish yo'qligi bolaga aqli zaif deyishimizga imkon bermaydi. Aqliy rivojlanmaslikni belgilashda klinik, psixologik va pedagogik mezonlar farqlanadi:

- * klinik mezonda - aqliy rivojlanmaslik va bu markaziy nerv sistemasining ma'lum muayyan organik kasalliklariga aloqadorligi;
- * psixologik mezonda – bilish faoliyatining turg'un pasayganligi;
- * pedagogik mezonda – o'zlashtirish qobiliyati past bo'lib, bolaning dastur materiallarini o'zlashtira olmasligini ifodalaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

- intellektual kamchiliklari bo'lgan aqli zaif bolalarni differensial yondashgan holda korreksion o'qitish va tarbiyalash masalalarining dolzarbligi yoritilgan;
- intellektual kamchiliklari bo'lgan aqli zaif bolalarni differensial yondashgan holda korreksion o'qitish va tarbiyalash masalalari tadqiqi yuzasidan ilmiy adabiyotlar tahlil etilgan;
- intellektual kamchiliklari bo'lgan aqli zaif bolalarni differensial yondashgan holda korreksion o'qitish va tarbiyalash masalalari yuzasidan mutaxassislarga tavsiyalar berilgan.

Tadqiqotning maqsadi intellektual kamchiliklari bo'lgan aqli zaif bolalarni differensial yondashgan holda korreksion o'qitish va tarbiyalash masalalari bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning obyekti intellektual kamchiliklari bo'lgan aqli zaif bolalarni differensial yondashgan holda korreksion o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganish jarayoni. Tadqiqotda tizimlilik, qiyosiy-mantiqiy tahlildan foydalanildi. Tadqiqotning manbaini me'yoriy huquqiy hujjatlarni, pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlarni qiyosiy-mantiqiy tahlil qilish natijalari tashkil etdi. Intellektual nuqsonning ifodalanishiga ko'ra aqliy rivojlanmaganlikni bir nechta darajalari ajratiladi. Intellektual rivojlanmaslikni darajasiga ko'ra oligofreniyaning turlishakllarini tizimlashtirishga asoslangan umuman qabul qilingan tasniflanishga muvofiq uch asosiy guruh aniqlanadi. Bular aqli zaiflikning: debillik, imbetsillik va idiotlik guruhlari farqlanadi. G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSHda bu atamalar faqat tor kasbiy doiradagi mutaxassislar

(masalan, shifokorlar) tomonidan foydalaniladi. Intellectning pasayish darajasi intellekt koeffitsiyenti bilan izohlanadi (ingl. IQ intelligence quotient, «ay kyu» deb o'qiladi) – kishi intellekti darajasining miqdoriy bahosi (aqliy rivojlanganlik koeffitsiyenti): o'rta statistik (shu yoshdagi yoki o'rta yoshdagi) kishining intellekti darajasiga nisbatan intellekt darajasi: torroq ma'noda – aqliy yoshni mazkur shaxs (indivud)ning haqiqiy xronologik yoshiga nisbati. Intellect darajasi maxsus testlar (Ayzenk testi kabi) yordamida aniqlanadi. Intellect koeffitsiyenti umumiy intellekt omilini baholashga urinishidir. IQ – bu intellekt darajasi o'lganadigan butun dunyo tomonidan qabul qilingan standart (agar Siz qanchalik aqliligizni bilishni hamda IQ testidan o'tishni xohlasangiz, unda Ayzenk testini topshirishingiz lozim bo'ladi). IQ testlari ishlab chiqishda natijalar medianasi $IQ \mu = 100$ va standart og'ishi $\sigma = 15$ ko'rsatkichlarga ega normal taqsimlanish bilan ifodalanishi nazarda tutiladi. Agar IQ taqsimlanishi shu yo'l bilan aniqlangan bo'lsa, natijalarning taxminan $2/3$ qismi (aniqrog'i 68,2 %) ko'rsatkichlar miqdori 85 va 115 o'rtasida joylashadi, ya'ni medianadan bir standart og'ish chegarasida. Natijalarning taxminan 50 % $IQ = 100 \pm 10$ chegarasiga tushadi. Natijalarning taxminan 4,6 % mediananing ikki standart og'ishidan tashqarisida joylashgan: 2,3 % natijalarda $IQ > 130$. IQ qiymatining 70 dan pastligi ko'pincha "aqliy rivojlanmaganlik" deb ta'riflanadi. Intellect koeffitsiyenti insonlarning intellektual rivojlanish darajasini (aqliy rivojlanish koeffitsiyenti) baholash maqsadida ishlab chiqilgan, aqliy yoshni xronologik yoshga munosabatini belgilaydi.

Aqliy qobiliyat – bu o'qish, o'rganish va muammolarni hal etish qobiliyatidir. Intellect insonning kognitiv qobiliyatlarini o'z ichiga oladi: his qilish, idrok etish, diqqat qilish, xotirada saqlash, tafakkur qilish, fikrlash, nutq so'zlash, xayol surish va tasavvur qilish va hokazo. Maxsus testlar (Ayzenk testlari kabi) yordamida aniqlanadi. IQ 70 balldan past bo'lsa, aqli zaiflik deb ko'rsatiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan 1997 yilda qabul qilingan XKK-10 (ya'ni, Xalqaro kasalliklar klassifikatsiyasi 10 bora qayta ko'rib chiqish natijasida (XKT-10) yagona me'yoriy hujjat sifatida qabul qilingan) Rossiya sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 1999 yilda butun Rossiya Federatsiyasida amaliyotga joriy qilingan. Bu me'yoriy hujjatda "Aqli zaiflik" – bu turli xil irsiy, tug'ma yoki hayotning erta boshlanishida

salbiy ta'sirlar guruhiga kiruvchi ruhiy rivojlanmaslikdir, deb ta'riflanadi. Bu hujjat XKT-10 da aqli zaiflikni etiologiyasiga ko'ra diagnostikasini kodlashda F7 (F70–F79)5 raqamlardan foydalanish taklif etilgan. “Aqli zaiflik” tushunchasini yaxshiroq tushunish uchun bir nechta sinonimlar xam berilgan. Bular “umumiy ruhiy rivojlanmaslik”, “ruhiy rivojlanmaslik”, “oligofreniya”. Oxirgi yigirma yillar davomida jahon korreksion pedagogika sohasida “oligofreniya” tushunchasiga nisbatan “aqli zaiflik” tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Demak, “Aqli zaiflik”ning XKK10 kodlari F 70 – 79. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (XKK-10), milliy va MDH davlatlari olimlari tomonidan intellekt pasayishining sifatli va miqdoriy ko'rsatkichlarining solishtirilishi quyidagi nisbatlarni beradi. F 70. Yengil darajadagi aqli zaiflik - bu aqliy rivojlanmaganlikning ahamiyatsiz bo'lgan darajasi. Bu darajadagi bolalar va shaxslar aqli zaiflik darajalari orasida eng ko'p bo'lgan miqdorini (70 – 80 %)3 tashkil etadi. Bu darajadagi bolalar normal rivojlanayotgan tengdoshlaridan orqada qoladi. Ular odatda kechroq yurib, gapirishni boshlaydi, kechroq muddatlarda o'zini eplash ko'nikmalarini egallaydi. Bunday bolalar qovushmagan, jismonan zaif, tez-tez betob holga tushadigan bo'ladi. Ular atrofdagi predmetlar olami bilan qiziqishlari yetarlicha rivojlanmaydi: predmetlarni o'rganmaydi, ular to'g'risidakattalardan so'rashga intilmaydi, tabiat va ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan jarayon va hodisalarga befarq munosabat bildiradi. Shu sababli maktabgacha davr yakuniga kelgan yoshda ularning passiv va aktiv lug'at boyligi ham yetarlicha rivojlanmaydi. Bolalar biror bir sodda matn mazmunini ravon bayon eta olmaydi. Iboralari juda sodda. Passiv lug'atning hajmi ham me'yorga nisbatan kam. Ular inkor etishli gaplar, ikki-uch so'zdan iborat yo'riqnomalarni tushunmaydi, xatto maktab yoshida ham suhbatga kirishishga qiynaladi, chunki ular hamsuhbatning savollarini yetarli darajada yaxshi tushunmaydilar. Korreksion ta'lim-tarbiya olmagan maktabgacha yoshning oxirida bunday bolalarda faqat predmetli faoliyat shakllanadi. tarbiyalash va o'qitish asosida syujetli-rolli o'yin harakatlari mustaqil ravishda shakllanadi. Ko'p hollarda yengil darajadagi aqli zaif bolalar ommaviy bolalar bog'chasiga qatnaydilar, chunki bu davrda ularning ruhiy rivojlanishidagi orqada qolishi yaqqol ko'zga tashlanmaydi.

Yengil darajadagi aqli zaif bolalarning ko'pchiligi umumta'lim maktabida ta'lim- tarbiya olmoqdalar. Bu yerda ular darhol matematika, ona tili, o'qish kabi fanlarni o'zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi.

F 71 O'rta darajadagi aqli zaiflik. Bunda. ham bosh miyaning katta yarimsharlari qobig'i, ham undan pastda joylashgan qismlari organik jarohatlangan bo'ladi. Bunday buzilish bola rivojlanishining erta davrlarida namoyon bo'ladi. O'rta darajadagi aqli zaiflik bilish jarayonlarining shakllanmaganligi bilan tavsiflanadi. Tafakkurda konkretlik, ketma-ketlik yo'q, bolalarning harakatlari maqsadli va aktiv emas. O'rta darajadagi aqli zaif bolalarda nutqni tushunish va undan foydalanish o'ta sekin (3-5 yilga kechikib) rivojlanadi, bu sohada to'liq rivojlanish esa cheklangan. Ba'zi bolalar butun umri davomida maishiy ishlarda nazorat va yordamga muhtoj bo'ladilar. Bunday bolalarning barchasida diqqate'tibori tarqoq, biror faoliyatga jalb qilish mushkul, ular bir zumda chalg'ib ketadilar.

Diqqat yo'naltirilgan muayyan predmet, obyekt yokijarayonga ongning aktiv qaratilishining sustligi, tarqoqligi har qanday, hattoki eng sodda maqsadlarga erishishga to'sqinlik qiladi. Shunga ko'ra faoliyatning barcha turlarini yetarli darajada o'zlashtira olmaslik xosdir. O'rta darajadagi aqli zaif bolalarda ma'lumotlar va tasavvurlar zaxirasi juda kam. Tarqoq tushunchalar hosil bo'lishi umuman yo'q yoki keskin chegaralangan. Qabul qilish va xotira yetarli rivojlanmaganligi kuzatiladi. F 72. Og'ir darajadagi aqli zaiflik. Go'daklik yoshda bunday bolalar kechroq (4- 6 oylikda va undan kechroq) boshini tutib, mustaqil ag'darilib, o'tira boshlaydi. Ularda go-golash, guvranish holatlari deyarli yo'q, "jonlanish kompleksi" shakllanmaydi. Yurish ko'nikmasini 3 yoshdan keyin egallaydi. Nutqiy qobiliyat maktabgacha davrning oxirida shakllanadi va alohida so'zlar ba'zida esa sodda jumladan iborat bo'ladi. Tovushlar talaffuzida sezilarli darajada nuqsonlar mavjud. Umumiy va mayda qo'l motorika harakatchanligi sezilarli darajada rivojlanmagan, shuning uchun o'zini boshqarish ko'nikmalari me'yorida rivojlanayotgan bolalarga nisbatan qiyinchilik bilan va kechroq muddatlarda shakllanadi. Intellektual buzilishlar yaqqol nevrologik patologiyalar: falajlik, parhezlar bilan birga kechadi. Ularda umumiy tana skeleti, bosh suyagi, qo'l-oyoq, teri-taktil, ichak a'zolarining rivojlanishi va moddalar almashinuvining buzilishi

xarakterlidir hamda displastik tana tuzilishi kuzatiladi. F 73. Chuqur darajadagi aqli zaiflik - aqliy rivojlanmaganlikning eng og'ir darajasi. Bunda bola hayotining ilk rivojlanish kunlaridanoq jiddiy nuqsonlarni tashxislash mumkin. Ko'p sonli belgilari ichida statik va motorika funksiyalarining buzilishlari alohida ajralib turadi: differensiyalashgan emotsional munosabat bildirishda kechikish; turish, yurish ko'nikmalarni kech namoyon bo'lishi; guvranish va birinchi so'zlarni nisbatan kech namoyon bo'lishi; atrofdagi obyektlar va o'yinga nisbatan qiziqmaslik. Bunday bolalarning eng og'irlari yig'lamaydi, kulmaydi, atrofdagilarni tanimaydi. Hech bir narsa e'tiborlarini torta olmaydi. Faqatgina og'riqdan ta'sirlanadilar. Ular fazoda mo'ljal olishga qiynaladilar. Yuz ifodalari ma'nosiz. Iste'mol qilsa bo'ladigan yoki iste'mol qilsa bo'lmaydigan narsalarni farqini ajrata olmaydilar. O'ziga qaratilgan nutqni yoki imo-ishorani tushunmaydilar. G'azablanish affektlari, o'z-o'ziga zarar yetkazish holatlari xosdir. Bu bolalarda sezgi, idrok qilish, xotira, e'tibor, fikrlash jarayonlari keskin buzilgan, sezgirlik chegaralari pasaygan. Ular atrof muhitni tushunishga erisha olmaydi, nutqi juda sekin va cheklangan holda rivojlanadi yoki umuman rivojlanmaydi.

XULOSA

Intellektual kamchiliklari bo'lgan aqli zaif bolalarni differensial yondashgan holda korreksion o'qitish va tarbiyalashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: Yengil, o'rta, og'ir darajadagi aqli zaif bolalarning o'ziga xos aktual taraqqiyot imkoniyatlarini hisobga olgan holda korreksion ta'lim-tarbiyani bolaning "erishilgan" taraqqiyot darajasiga asoslanib emas, balki bolaning "Yaqin vaqtlarda rivojlanishi mumkin bo'lgan darajaga" asoslanib tashkil qilinsa, kutilgan natijalarga erishiladi. Aqli zaif bolalarning maktabgacha yosh davridan boshlab ta'lim-tarbiya olishlari ijobiy hal etilsa, shart-sharoitlar yaratib berilsa, korreksion o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalari samarali hal etiladi. Korreksion o'qitish va tarbiyalash vazifalari har xil yo'nalishlarda (jismoniy, gigiyenik tarbiyalash, savodga tayyorlash, elementar matematika, mehnat ko'nikmalari, tasviriy faoliyat, davolovchi-himoyalovchi kompleks mashqlar, nutq o'stirish, logopedik, ritmika mashg'ulotlari va boshqalar) variativ dasturlar asosida olib borilsa, aqli zaif bolalarning ikkilamchi nuqsonlari imkon darajada bartaraf

etilishiga erishiladi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida korreksion maktablarda beriladigan bilim, ko'nikma, malakalar mos va sifatli bo'lishi ta'minlansa, aqli zaif bolalar mustaqil hayotga tayyorlanadi, mustaqil hayotga moslashish jarayonlari yaxshi kechadi, jamiyatdagi roli va o'rnini topadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Qonuni. - T., 2020
2. "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. T., O'zbekiston, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, T., O'zbekiston, 2008.
4. Aytmetova. S. Sh Oligofrenopedagogika. - T., 1994.
5. Вайсман. Н.П. "Психология умственно отсталых детей". - М., 1997.
6. Гаврилушкина. О.П. Соколова. Н.Д. «Воспитание и обучение умственно отсталых дошкольников». - М., 1985.
7. С.Д. Забрамная. Психолого-педагогическая диагностика умственно отсталого развития детей». - М., 1995.
8. Основы обучения и воспитания детей с отклонениями в развитии Учебное пособие. Под ред. Б.П. Пузанова. Издательский центр "Академия", 2001.
9. Катаева. А.А. Дидактические игры и упражнения в обучении умственно отсталых дошкольников». Книга для учителя М., 1993.
10. Маллер А.Р. Обучение, воспитание и трудовая подготовка детей с глубокими нарушениями интеллекта. М., «Педагогика», 1988.
11. P. Pulatova Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika). T.: «G'afur G'ulom», 2007.
12. Shoumarov G'B. Mamedov. K.K. "Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik xususiyatlari va differensial diagnostikasi". - Toshkent, 1987.
13. Mamedov K.K. Shoumarov, G 'B. Podobed. V.P. "Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida". - T., 1999.
14. A. Xusanov. Maxsus pedagogika va maxsus psixologiya. O'UM, UBS, Namangan 2025.
15. A. Xusanov. Mutaxassislikka kirish. O'UM, UBS, Namangan 2025.
16. A. Xusanov. Inkluziv ta'lim. Gospital pedagogika. O'UM, UBS, Namangan 2025.
17. A. Xusanov. Logopediya. O'UM, UBS, Namangan 2025.